

ABDULLA QAHHORNING “DAHSHAT” HIKOYASIDA GO‘RISTON KONSEPTI

Saidova Rayhonoy Abdug‘aniyevna

Buxoro davlat pedagogika instituti professori, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Rasulova Shahlo Shavkat qizi

Buxoro davlat pedagogika instituti O‘zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi 2-bosqich magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15531804>

Annotatsiya. Badiiy matnning asosiy xususiyatlaridan biri uning cheksizligida ko‘rinadi. Mana shu cheksizlik alomatiga ko‘ra matnni koinotga muqoyasa etish mumkin. Bunday bepoyonlik matnning gorizontali (yon) va vertikal (tik) ravishda har tarafga qarab muttasil kengayib borishi tufayli yuzaga keladi. Natijada matn o‘zining hajmi, chegaralarini uzluksiz uzaytiradi. Ushbu kattalashish matnning harakati, ya‘ni o‘zidagi belgilarning bir-biri bilan doimiy aloqa-munosabatlarga kirishishidan yuzaga keladi.

Kalit so‘zlar: Dahshat, matn cheksizligi, go‘riston, o‘liklar qabrisoni, tiriklar qabrisoni, bo‘yra, xufton ibodati, halqa.

Аннотация. Одной из главных характеристик художественного текста является его бесконечность. По этому признаку бесконечности текст можно сравнить со вселенной. Эта бесконечность обусловлена тем, что текст непрерывно расширяется во всех направлениях, как по горизонтали (вбок), так и по вертикали (в вертикальном направлении). В результате текст постоянно расширяет свои размеры и границы. Это увеличение происходит за счет движения текста, то есть постоянного взаимодействия персонажей внутри него друг с другом.

Abstract. One of the main features of a literary text is its infinity. According to this sign of infinity, the text can be compared to the universe. Such infinity occurs due to the continuous expansion of the text in all directions, both horizontally (laterally) and vertically (vertically). As a result, the text continuously extends its size and boundaries. This enlargement occurs due to the movement of the text, that is, the constant interaction of the signs in it with each other.

Atoqli semiotik, postmodernizm namoyandasi Rolan Bart badiiy asardan farqli ravishda badiiy matnga ko‘plik xususiyati xosligini ko‘rsatgan edi: “Matnning ko‘pligi uning mundarijasidagi unsurlarning ikki ma‘no (denotativ va konnotativ)ga ega bo‘lishi bilan emas, bildiruvchilarning ko‘p tarmoqliligi sababli paydo bo‘ladi”. Olim aynan mana shunaqa bildiruvchilar matn “mato”sini hosil qilishini ko‘rsatgan.


Biz ushbu maqolada yozuvchi Abdulla Qahhorning “Dahshat” hikoyasidagi Go‘riston konseptining semiotik tahlili orqali matn cheksizligi hodisasini oydinlashtirishga harakat qilamiz.

“Dahshat” hikoyasidagi matn harakati jarayonida shamol bilan bir qatorda go‘riston belgisi ham muhim badiiy-funksional ahamiyat kasb etadi. Bu hodisaning asosiy sababi shundaki, aslida shamol konseptining g‘oyaviy-poetik vazifasi go‘riston lisoniy birligi tarkibida mujassamlashgan belgining mohiyatini ochish va aniqlashtirishda ko‘rinadi. Shamol dahshatning o‘zi emas, balki undan xabar beruvchi, u tomon olib boruvchi asosiy alomatdir. Shunday ekan, biz matn badiiy maydonida tajassum etilgan chinakam dahshat mohiyatini yanada chuqurroq anglash uchun asosiy e‘tiborni go‘riston belgisi, aniqrog‘i, uning strukturasiidagi konseptga qaratmog‘imiz lozim bo‘ladi.

Go‘riston konseptining matn badiiy konseptiyadagi alohida o‘rnini statistik tahlil orqali yanada yaqqolroq bilish mumkin: hikoya matnida shamol lug‘aviy birligi 11 marta qo‘llanilgan

bo'lsa, go'riston so'zi 18 marta istifoda etilgan. Shu bilan birga, matnda qabriston bevosita yoki bilvosita aloqador go'r, sag'ana, bo'yra kafan singari lisoniy birliklar ishlatilgan. Bu o'rinda dodho fe'l-tabiatini inkishof etishda muhim o'rin tutgan bo'yra bilan bog'liq belgi haqida ayrim mulohazalarni bayon qilamiz.

“Bo'yra odatda, tobutga solinadigan bo'lganidan, dodhoning ko'z oldiga odamlarning yelkasida lapanglab ketayotgan tobutni keltirdi. Tobut esa yana go'ristonni eslatdi...” (42-bet). Ko'rinyaptiki, aslida go'ristonga to'g'ridan to'g'ri aloqasi bo'lmagan mazkur birlik dodxo xayolot olamida assotsiativ tarzda qabristonga borib bog'lanadi. Ushbu xayolot silsilasining chizmadagi ifodasi:



Hikoya qahramoni tafakkuridagi bunday assotsiativ jarayon asosida esa dodho ong ostidagi o'limdan qo'rqish tuyg'usi turibdi. Aynan ushbu obraz qalbidagi ana shunday hissiyot uning diniy-islomiy e'tiqodi darajasini aniqlash imkonini beradi. Imom G'azzoliy “O'limni eslash kitobi”, “O'limdan so'ng” risolalarida insonning har lahzada o'limni eslashi va shu orqali o'z amallari va faoliyatini taftish qilib borishi lozimligini ta'kidlagan edi. Bu haqda alloma shunday yozadi: “Biling! Dunyoga mukkasidan ketgan, uning aldovlariga ishonib, shahvatlar og'ushida qolgan kishining qalbi, shubhasiz, o'limni eslash amalidan g'ofil, bu ne'matdan bebahradir. Bunday odam o'limni eslashni yoq'tirmaydi, bundan qochadi¹”.

Olim bu muammo borasidagi tekshirishlari asosida odamlarni uch guruhga ajratgan:

- 1) dunyoga mukkasidan ketganlar;
- 2) tavba yo'liga kirganlar;
- 3) kamolga yetgan oriflar².

Olimning yozishicha, tavba yo'liga kirgan odam o'limni eslagani sayin qalbi qo'rqinchu istig'farga, vujudi xushu' va xuzu'ga limmo lim to'ladi. Uning dilida qo'rquv o'limdan emas, balki ezgu ishlarim yetarli emas, degan tashvish tufaylidir. Orif esa o'limni muttasil yodda tutadi. O'lim uning uchun parvardigor huzuriga dastlabki qadam, diydorlashish manzilidir.

Dunyoga mukkasidan ketgan kishi esa o'limni eslamaydi. Esлагan taqdirda ham dunyosi qolib ketayotganiga afsus qilib, bunga o'lim sababchi bo'lyapti, degan bema'ni xayolga boradi.

Hikoya syujeti davomida dodhoning muayyan voqea tasviri davomidagi xatti-harakatlari, ichki dunyosi ifodasi uning tavba yo'liga kirganlar yoxud kamolga yetgan oriflar guruhiga aloqasi yo'qligini ko'rsatadi. U dunyoga hirs qo'rgan kimsalar toifasiga mansub. Chunki u go'ristonni eslaganda, hikoyada qayd etilganidek “tiligacha sovuq ter chiqaradi”. Dodho imkon darajasida o'limni yodga olishni xohlamaydi, beixtiyor eslaganda esa qalbini adadsiz vahima qoplab oladi. Uning bunday depressiv alomatga ega ruhiy olami islomiy e'tiqodining zaif va yuzakiligini ko'rsatadi.

Matnning yuza qatlamida axborot tarzida aytilgan shunday ifoda bor: “Dodho har kecha taroveh namozidan keyin halqaga qolar edi, bu kecha erta qaytdi” (41-bet). Taroveh namozi ramazon oyida xufton namozidan keyin o'qiladigan yigirma rakatli ibodat. Bu islomiy e'tiqodga ko'ra sunnat hisoblanadi. Ahli sunna val jamoa ushbu sunnatni to'liq ado etishni zarur deb hisoblaydilar. Xufton ibodati davomida to'rt rakat farz, ikki rakat sunnat va uch rakat vitri vojib

¹ Абу Хомид Ғаззолий. Ўлимни эслаш китоби. – Тошкент: Мовароуннагр, 2004. – Б. 9.

² Абу Хомид Ғаззолий. Шу китоб. – Б. 9.

namozi ado etiladi. Shunday qilib, ramazon ayyomida har tunda yigirma to'qqiz rakat namoz o'qish lozim bo'ladi. Yuqorida keltirilgan matniy parchadan ma'lum bo'lyapti, dodho jamoa bilan ramazonning har kechasida yuqorida aytilgan ibodatlarni bajarib kelgan. Ushbu ishlar bilangina kifoyalaniq qolmay, "halqa"da ham qatnashgan. Halqa – so'fiylar mashg'uloti. Unda zikr va boshqa amallar orqali so'fiylarning Haqqa muhabbati izhor etilgan. Binobarin, tashqi – zohir nuqtai nazaridan dodho nafaqat komil musulmon, shuningdek, so'fiylikka ma'lum bir darajada aloqasi bo'lgan inson sifatida ham baholanishi mumkin. Ammo matnning struktur-semiotik tahlili bunday xulosa asossiz ekanligini ko'rsatadi.

Hikoya muqaddimasida dodxoning taroveh namozidan keyin halqaga qolmasdan uyiga erta qaytgani kommunakativ axborot tarzida adresat (kitobxon) ga ma'lum etilgan. Badiiy matnning xususiyatlaridan biri shundaki, uning matni doirasiga kirgan har qanday so'z, birikma yoki gap yo'l-yo'lakay, shunchaki ifoda etilmaydi, u matnning yaxlit "mato"siga birikishi hamda badiiy konseptsiya talablariga bo'ysundirilishi lozim bo'ladi. Aks holda matn hech qachon o'zi uchun keraksiz – ortiqcha "yuk"ni qabul qilmaydi, muallifdan uni bartaraf qilishni talab qiladi. Aks holda matn o'zining yaxlitligini yo'qotadi va yagona adabiy-badiiy tizim sifatida zaiflashib qoladi. O'zbekiston xalq yozuvchisi Said Ahmad o'z xotiralaridan birida Abdulla Qahhorning ayrim hikoyalaridagi ba'zi so'zlarni ularning ma'nodoshlariga almashtirishga urinib ko'rganligini yozgan edi. Ammo shogird ijodkorning bunday urinishi samara bermagan, hikoya matnlari hatto ayrim lisoniy birliklarning almashtirilishiga yo'l qo'ymasligi ma'lum bo'lgan. Yuqorida bayon qilingan mulohazalar bizga shuni ko'rsatadiki, "Dahshat"dagi yetakchi obrazning o'z xonadoniga odatdagidan barvaqt qaytishi xususidagi xabar tasodifiy emas, u dodxoning ichki olamini badiiy inkishof etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Hikoya syujet maydonidagi ushbu epizod markaziy personajning islomiy e'tiqodi mustahkam emasligini ko'rsatmoqda. To'g'ri, inson ba'zi bir vaqtlarda bemorligi yoxud zarurat tufayli muayyan bir ibodatni o'z vaqtida bajara olmasligi mumkin. Bunday hollarda u ma'zur hisoblanadi. Biroq semiotik kuzatishlarimiz shundan dalolat bermoqdaki, dodho mazkur holatda ma'zur emas, chunki u halqani jiddiy bir sabab yoxud ehtiyoj tufayli tark etmagan. Voqea bayonidan ma'lum bo'ladiki, "yaqin ikki haftadan beri ko'z ochirmayoigan kuzak shamoli"ning shiddatidan vahimaga tushib uyiga qaytgan. Holbuki, uning psixologik jihatdan antipodi (ziddi) bo'lgan Unsin ana shunday vahimali kechada qabristonga yolg'iz borib eri tomonidan amr qilingan vazifani bajarishga o'zida kuch va iroda topa oladi. Ozodlikka erishish tuyg'usi yosh juvonning ana shunday favqulodda jasoratni talab qiladigan ishni amalga oshirishga undaydi. Dodho esa e'tiqodidagi nochorlik tufayli odatdagi ibodatni tashlab keladi. Nafaqat mana shu tasvir, hikoyadagi keyingi lavhalar (uning to'ng'ich xotini Nodirmohbegimning Unsinni himoya qilishga uringani uchun shafqatsiz kaltaklashi, go'ristonga kelgan bechora juvon ortidan o'z odamini yuborib, maymun orqali uni qo'rqitib o'limiga sabab bo'lishi) dodxoda nafaqat so'fiylik yoki musulmonlik, shuningdek, insoniylik alomatlari mavjud emasligini namoyon etadi. Shunday qilib, go'riston konseptiga bilvosita aloqador bo'lgan bo'yra lug'aviy birligi tarkibida mujassamlashgan belgi dodhoning komil musulmon emasligi, o'limdan qo'rqishi kabilarni o'z strukturasiida ifoda etayotgani ma'lum bo'ladi.

Matn voqea tizimida go'riston bilan bog'liq o'y-fikr, xotira va tasvirlar quyidagi ketma ketlikda yuzaga keltirilgan:

- shiddatli shamoldan qo'rqan dodho masjidan uyga qaytgach, qabristonni eslashi: "Dodho darchani zichlab yopti, joyiga o'tirib tasbeh o'girishga kirishdi. Uning barmoqlari tasbeh donalarini tez-tez o'tkazayotgan bo'lsa ham qulog'i guvillayotgan shamolda,

xayoli go‘ristonda edi: “Hozir go‘riston qanaqa vahimali bo‘lsa ekan...” (42-bet);

- dodhoning xotinlari davrasida o‘z “dovyurak”ligini ko‘rsatish uchun go‘riston vahimalaridan so‘z ochishi;

- Nodirmohbeginning Asqadponsod go‘riga pichoq sanchishga garov o‘ynagan yigit haqidagi hikoyasi;

- Unsinning ozodlikka erishish maqsadida dodho shartiga ko‘ra Onhazratim sag‘anasi oldida choy qaynatib kelishga ahd qilishi;

- Unsining go‘ristonda boshdan kechirganlari, qabrlar orasida qumg‘on qaynatish uchun o‘tin yig‘ishi, unga maymunning hujumi.

Yuqorida keltirilgan qabriston bilan bog‘liq voqea lavhalari ketma-ketligi chindan ham badiiy matn hududida go‘riston motivining alohida ahamiyat kasb ekanligini ko‘rsatyapti.

Bu o‘rinda aytish lozimki, matnda bitta emas, ikkita qabriston nazarda tutilgan: “Go‘riston to‘g‘risida dodxo nimalar eshitgan bo‘lsa, Unsin ham shuni eshitgan, shamol kechasi go‘riston dodxo xayolida qandoq dahshatli bo‘lsa, uning xayolida ham shunday dahshatli, lekin shunday bo‘lsa ham, tiriklar go‘ristoni bo‘lgan bu dargohning dahshati oldida o‘liklar go‘ristoni dahshati unga dahshat ko‘rinmas, bundan tashqari, ertagayoq Ganjiravonga jo‘nash, ota-onasini, dugonalarini ko‘rish umidi uning boshiga boshqa hech qanday fikr-xayolni yo‘latmas edi” (46-bet).

Yuqorida keltirilgan matniy bo‘lakda inson hayotida ikkita qabriston bo‘lishi mumkinligi aytilgan:

1) o‘liklar qabristoni – matn strukturasi bu xabar vazifasini bajaradigan belgi bo‘lib, musulmon, nasroniy, yahudiy kabi dinlarga mansub odamlar vafot etganda ko‘miladigan joyni anglatadi. Aslida diskursda “o‘liklar qabristoni” deyilmaydi, qabriston yoki go‘riston deyishning o‘zi kifoya qiladi, chunki qabristonga hamisha murdalar ko‘miladi. Badiiy matn o‘z poetik-estetik tarkibiga mazkur jumlaning qabul qilganinining asosiy boisi shundaki, bu sintaktik birikmani unga yondosh bo‘lib, bitta paradigmatic guruhni tashkil etayotgan “tiriklar” qabristoni konnatativ birligi talab va taqozo etmoqda.

2) tiriklar qabristoni - o‘lgan kishi o‘zining yer yuzidagi so‘nggi manzili bo‘lgan qabrdan to qiyomatgacha o‘z ixtiyoriga ko‘ra chiqa olmaydi. U bu joyda uzoq muddat qolishga majbur. Kelgusida xoki ko‘chirilganda ham, bu ish uning irodasiga bog‘liq emas. “Tiriklar qabristoni” esa tirik inson yoxud insonlar bir umr qolishga majbur etilgan makon. Bunda yashayotgan odam garchi tirik bo‘lsa-da, haq-huquqqa, baxtga, erkinlikka ega emas. Shu ma‘noda uning mavjudligi o‘likning go‘rdagi holatiga monanddir.

Tiriklar qabristoni, ya‘ni yomonliklar manzili garchi sirtidan qaraganda barqaror va haybatli ko‘rinsa-da, aslida u g‘ayriaxloqiy, g‘ayriinsoniy mohiyatga ega bo‘lgani uchun inqiroz va halokatga mahkum. Matn muqaddimasida adresant zulm ustuvor bo‘lgan dargohga xos zug‘um va zo‘ravonlik tantanasini ko‘radi. Bu badiiy-estetik hududda dodhoning ko‘chadan uyiga kirib kelganidayoq yaqqol namoyon bo‘ladi (qari va mustabid erning xotinlari o‘tirgan xonaga qadam qo‘yishi bilanoq sakkiz kundoshning “to‘zg‘ishi” qamchidan yurak oldirib qo‘ygan bechora ayollarning muteligi ifoda etgan belgidir). Biroq birgina dahshat kechasining o‘zi adolatsizlik asosida bunyod etilgan dodho saltanatining darz ketishi va zaiflikka yuz tutishi uchun kifoya qiladi.

Unsinga taalluqli dahshat konnotatsiyasi qabriston haqidagi xurofiy aqidalardan kelib chiqqan bo‘lsa, dodxo ko‘nglidagi nihoyasiz dag‘shat o‘limdan qo‘rqish hissidan kelib chiqadi. Unsin qalbidagi qo‘rquv tuyg‘usini ma‘lum darajada yengib qabristonga borib kelish uchun kuch,

iroda topa olgan esa dodho yuragida o'lim qo'rquvi saqlanib, hatto kuchayib boradi. Bu esa sodda va havayotiy tajribasi kam yosh juvonne mardonavor xarak ter tarzida, hukmfarmo va mukstabid dodxoni irodasiz va qo'rqq bir kimsa tasavvur etishga olib keladi. Bu esa "Dahshat" hikoyasi matnining mukammaal badiiy-estetik tizim sifatida shakllanishi natijasidir.

REFERENCES

1. ABDUGANIEVNA, S. R. The Role of Semiotics in Literature. JournalNX, 6(09), 190-193.
2. Rayhonoy, S., & Murodov, G. (2020). Structural semiotic analysis of a literary text. International Journal of Scientific and Technology Research, 9(2), 3319-3323.
3. Муродов, Г., & Саидова, Р. (2017). Интерпретация терминов и их анализ. Молодой ученый, (13), 703-705.
4. Saidova, R. A. (2020). SEMIOTIC SQUARE AND BINARY OPPOSITION. Theoretical & Applied Science, (2), 201-205.
5. Abduganievna, S. R. Semiotic Analysis of a Literary Text. International Journal on Integrated Education, 3(3), 51-56.
6. Истамова, Ш. М. (2021). ХАЛҚ ОҒЗАКИ ИЖОДИ ВА ЁЗМА АДАБИЁТ НАМУНАЛАРИДА ТУШ МОТИВЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ ЎЗИГА ХОСЛИГИ: Истамова Шоҳида Махсудовна, филология фанлари буйича фалсафа доктори. Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал, (6), 16-19.4.
7. Maxsudovna, I. S. (2023). Dreams as a Means of Psychological Analysis.
8. Истамова, Ш. М. *Поэтико-композиционные функции сна в художественном произведении* (Doctoral dissertation, (PhD) по филологии: 10.00. 02/Истамова Шоҳида Махсудовна).
9. Истамова, Ш. М. СНОВИДЕНИЯ И СИМВОЛ В ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ПРОИЗВЕДЕНИЯХ. *Сборник научных статей по итогам работы Международного научного форума*, 72.
10. Анъанавий туш рамзларининг поэтик матнда берилиши ШМ Истамова - Новое слово в науке и практике: гипотезы и ..., 2017
11. Maxsudovna, I. S., & To'ymurodovna, Q. G. (2024, February). BOSHLANG'ICH SINFLARDA DIDAKTIK VOSITALARDAN FOYDALANISHNING ANAMIYATI. In International conference on multidisciplinary science (Vol. 2, No. 2, pp. 59-64).
12. Истамова, Ш. М., & Шарипова, М. Б. (2024). ЛИТЕРОНОМИК ТАЖНИС САНЪАТИ АЛИШЕР НАВОИЙ ИЖОДИДА. Экономика и социум, (5-2 (120)), 1072-1075.
13. Maxsudovna, I. S., & Qizi, S. M. S. (2022). The role and importance of puzzles in the development of intellectual abilities of primary school students. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 12(2), 209-213.
14. Maxsudovna, I. S., & To'ymurodovna, Q. G. (2025). ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH (KAHOOT, EDUCAPLAY KABI PLOTFORMALAR MISOLIDA). PEDAGOGIK TADQIQOTLAR JURNALI, 2(2), 177-180.

15. Jalilovna, Q. Z., & Maqsudovna, S. I. (2024). O 'QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA LUG 'AT USTIDA ISHLASH USULLARI. *Methods of applying innovative and digital technologies in the educational system*, 1(2), 184-186.
16. Jalilovna, Q. Z., & Maqsudovna, S. I. (2024). LUG'AT USTIDA ISHLASHNING LINGVISTIK ASOSLARI VA VAZIFALARI. *PEDAGOG*, 7(6), 186-189.
17. Sulaymonovich, S. F., & Maqsudovna, I. S. (2020). Types of lexical meanings. *Journal of Critical Reviews*, 7(6), 481-484.